



Uzacryl M20 – akril kislotasi va stiroil sopolimerining o`rta anionik quyuq dispersiyasidir. U yog`o

## QO`LLANILISHI

Uzacryl M20 - quyidagi mahsulotlarni tayyorlash uchun universal bog`lovchi hisoblanadi:

- Fasad va Interier bo`yoqlari
- Teksturali qoplamalar
- Mineral asosidagi gruntovkalar

- Shpatlyovkalar
- Modifikatsiyalashgan silikat bo`yoqlari
- Betonni himoyalovchi vositalar

### **XUSUSIYATLARI**

- Yuqori darajada pigmentlar bilan moslashishi
- Boshqa bog`lovchilar bilan mos kelishi (silikatli, silikonli va x.k.)
- G`ovakli asoslarga yaxshi singishi
- Mexanik qorishtirishlarga barqarorligi
- Suv va ishqorga yaxshi chidamliligi
- Suvga nisbatan oz singdiruvchanligi
- Qatlamning shaffoligi va yuqori egiluvchanligi

## MAHSULOT TARKIBI

TSh 64-15329272 - 04: 2007 bo`yicha asosiy texnik ma`lumotlar

Qattiq modda tarkibi	50 ± 1,	%	
25 °C dagi	quyuqligi,	(	Brookfield DV-II+
pH ko`rsatkichi	7-9,	g/sm	3
Zichlik, 20 °C	taxminan	1.02 - 1.07	
Zarrachalarning o`rtacha o`lchami	taxminan	0.1, μm	
Qatlam hosil bo`lishning minimal temperaturasi	taxminan	+ 13, °C	
Dispersiya turi	Anionli		
Plastifikator	Yo`q		
Suv bilan qarishishi	Yaxshi		
Pigment bilan bog`lanishi	Yuqori		
Sovuqqa chidamliligi	Sovuqqa chidamli emas		

## QATLAM TARKIBI

	Qatlamning tashqi ko`rinishi	Shaffof
Egiluvchanlik	Yaxshi	
Ishqalanishga qarshilik	Yuqori	
Yorug`likka chidamlilik	Mustahkam	

## QAYTA ISHLASH

Keng qo'llaniladigan qurilish bo'yoqlari, yelimli materiallar, turli bo'yoqlar, quyuq va yuqori tarkibli qattiq moddalarni talab qiluvchi sintetik moyli suvoq mahsulotlari hamda shpatlyovkalar ishlab chiqarish jarayonida qorishtirish yuqori tezlikda harakatlanuvchi moslamalar yordamida amalga oshiriladi. Bunda dispersiya va qo'shimcha moddalar to'ldiruvchi va pigmentlarni o'zaro bog'lash uchun qo'llaniladi. Qurilish bo'yoqlarini ishlab chiqarish jarayoni odatda yuqori tezlikdagi qorishtirgichlarda, masalan, dissolverlarda amalga oshirilib, bunda to'ldiruvchi/pigment qorishmalari avval qo'shimcha moddalar bilan birga aralashtirilgan bo'lishi, dispersiya esa so'ngida qo'shilishi kerak bo'ladi.

Uzacryl M20 dispersiyasi shu darajada barqarorki, u yuqori tezlikdagi dispergator, biser tegirmonlaridagi yuqori bosimlarga ham bardosh bera oladi. Shu xususiyati tufayli Uzacryl M20, boshqa stirol akril asosidagi ko'plab dispersiyalardan farqli ravishda, o'z tarkibida to'ldiruvchilar va pigmentlar miqdori juda yuqori bo'lgan shpatlyovkalar ishlab chiqarish imkonini bermoqda. Bunday sifat ko'rsatkichi, o'z navbatida, turli tayyor mahsulotlarning tan narxini pasaytirishga olib kelmoqda. Uzacryl M20, boshqa dispersiyalar kabi, ko'pirishga moyil. Shu sababli u ko'pikni kamaytiradigan qo'shimchalar ishlatilishini talab qiladi. Ularning miqdori va samaradorligi tajriba yo'li bilan aniqlanishi lozim. Bizning dispersiyamiz turli xil mikroorganizmlar ta'siridan himoyalangan. Uning asosida tayyorlangan boshqa mahsulotlarni saqlash vaqtida ularning barqarorligini ta'minlash uchun kerakli konservantlarni qo'shish maqsadga muvofiqdir. Qo'llanilayotgan konservantlarning uyg'unligi va samaradorligini ham tajribali yo'l bilan aniqlash mumkin. Quyuqlikni nazorat qilish va mahsulotning iste'molchilik xususiyatlarini oshirish uchun odatda quyuqlashtirgichlar qo'shish kerak bo'ladi. Keng qo'llaniladigan quyuqlashtirgichlar bo'lib, tselluloza efirlari, poliakrilat yoki diuretan hisoblanadi. Ularni tanlash qanday tayyor mahsulot tayyorlanishiga (tikotrop yoki uncha quyuq bo'lmagan) bog'liq.

Uzacryl M20 13°C dan yuqori temperaturalarda juda yaxshi qatlam hosil qiladi. Bunda minimal temperaturada qatlam hosil bo'lishiga erishish uchun koalistsentlardan (umumiy retseptdan 1-1.5% miqdorida) foydalanish mumkin. Hidli bog'lovchilar, butil(di)glikol, butil(di)glikolasetat, teksanol va boshqalardan ham shu maqsadda foydalansa bo'ladi. Kichik molekulyarli spirtlar va glikollar tayyor mahsulotni sovuqqa chidamlilik xususiyatini yaxshilaydi, ammo qatlam hosil bo'lish temperaturasini pasaytirmaydi. Qatlamga alohida egiluvchanlik berish maqsadida plastifikatorlar ham qo'shish mumkin. Uzacryl M20 asosida yangi mahsulotlarni tayyorlash jarayonida turli tajribalar o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Ko'plab omillarning, jumladan, qo'shimchalarning o'zaro mutanosibligi, mosligi, qorishtirish jarayonining o'tishi, moddalar adgeziyasi va hokazolarni faqat ishlab chiqarish davomidagina aniqlash mumkin. Ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir qiluvchi barcha omillarni qamrab ololmasligi tufayli, ishlab chiqaruvchilar Uzacryl M20 dan foydalangan holda yangi mahsulot chiqarish ustida o'zlarinigi shaxsiy tajribalarini o'tkazishlari tavsiya etiladi.

## XAVFSIZLIK

### Umumiy talablar

Bizning ko'p yillik tajribamiz va boshqa umumiy ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, Uzacryl M20 ni to'g'ri qo'llash oddiy ishlab chiqarish gigiyenasi talablariga amal qilingan holda sog'liqqa salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Ximikatlar bilan ishlash vaqtida standart talablarga va gigiyena qoidalariga amal qilish talab etiladi. Qayta ishlash jarayonida samarali havo almashinuvi hamda terini himoyalovchi vositalar, himoya ko'zoynagi bilan ta'minlangan bo'lishi zarur. Mahsulot teriga/ko'zga tekkan hollarda, terini/ko'zni zudlik bilan toza suv bilan yaxshilab yuvib tashlash lozim. Mahsulotni davomli qo'llash teri va shilliq qoplamlarda g'ash kelish holatini yuzaga keltirishi mumkin.

### Saqlash

Uzacryl M20 saqlash va qayta ishlash vaqtida zanglashga moyil metallar yoki himoya qatlamiga ega bo'lmagan quyilmalar bilan aloqada bo'lishi man etiladi. Mahsulot solingan idishlar zich yopilgan holda ochiq xavo bo'shlig'i va kerakli namlikka ega, quyosh nurlari to'g'ridan-to'g'ri tushmaydigan xonada saqlanishi lozim. Mikroorganizmlarning ta'siridan qochish uchun, mahsulot saqlanayotgan idishlar gigiyenasiga amal qilish darkor. Mahsulotni kuchli qizishi va muzlashiga yo'l qo'ymaslik zarur. Bochkalarni yonma-yon qo'yilgan holda saqlash tavsiya etiladi. Ushbu shartlarga amal qilingan holda va +5°/ +35° C temperatura oralig'ida saqlanganda, mahsulot ishlab chiqarilgan kundan boshlab 12 oy davomida o'z tarkibini o'zgartirmaydi.

Uzacryl M20 boshqa dispersiyalar kabi, temir, mis, tsink, alyuminiy kabi metallarga nisbatan sezuvchandir. Shu sababli, ushbu metallar va ularning quyilmalaridan ehtiyot bo'lish talab etiladi. Ushbu shartlar nafaqat saqlash zahiralari, balki ishlab chiqarish jarayonida qo'llaniladigan o'tkazgichlar, quvurlar, qorishtirgichlar va idishlarga ham taalluqlidir.

